XALQ DEPUTATLARI G'OZG'ON SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 26-iyun VII-22-49-5-210-K/26 G‘ozg‘on shahar

G‘ozg‘on shahrining 2026-yil mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlarini balansliligini buzmagan holda ko‘paytirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-son qarori ijrosini ta’minlash hamda Xalq deputatlari G‘ozg‘on shahar Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlar, agrar, qurilish, kommunal sohalar, ekologiya, sanoat va transport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 2026-yil 12-iyun DKQ 03-01/25-26-sonli Qarori va O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining 127-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24- moddasiga asosan xalq deputatlari G‘ozg‘on shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-son qaroriga asosan shahardagi jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno) 10 foizini mahalla jamg‘armasiga o‘tkazishdan yuzaga kelgan farqni qoplash uchun 250 000,0 (ikki yuz ellik million) ming so‘m mablag‘ zarurligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston mahallalar uyushmasi G‘ozg‘on shahar bo‘limi tasarrufidagi mahallalarning “Mahalla jamg‘armasi”ga jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno)

10 foizini o‘tkazishdan yuzaga kelgan farqni qoplash uchun Navoiy viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi bilan kelishilgan holda, Xalq deputatlari G‘ozg‘on shahar Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi VII-16-119-5-210-K/25 -sonli qarori 2-ilovasidagi 11-bandi hamda 3-ilovasidagi 7-bandlari shahar mahalliy byudjeti hisobidan G‘ozg‘on shahar mahalliy byudjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlarini 250 000,0 (ikki yuz ellik million) ming so‘mga **ilovaga** muvofiq oshirilsin.

3. Shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (S.Boboyev) G‘ozg‘on shahar mahalliy byudjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlar, agrar, qurilish, kommunal sohalar, ekologiya, sanoat va transport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Qodirov) va ijrosi shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (N.Zoyirov) zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **RO‘ZIYEV ZUXRIDDIN MUHIDDINOVICH**

Xalq deputatlari G‘ozg‘on shahar
Kengashining
2026-yil 26-iyundagi
VII-22-49-5-210-K/26 -son qaroriga
1-ilova

a.Xalq deputatlari G‘ozg‘on shahar Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi VII-16-119-5-210-K/25 -son qarori 2-ilovasidagi 11-bandi Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

(ming so‘mda)

Soliq turi	**Tasdiqlangan parametr**	**Parametrga kiritiladigan o‘zgarish so‘mmasi**	**Jami**
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	**1 219 000**	**250 000**	**1 469 000**

b.Xalq deputatlari G‘ozg‘on shahar Kengashining 2025-yil30-dekabrdagi VII-16-119-5-210-K/25 -son qarori 3-ilovasidagi 7-bandi“Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

(ming so‘mda)

Xarajat turi	**Tasdiqlangan parametr**	**Parametrga kiritiladigan o‘zgarish so‘mmasi**	**Jami**
“Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	75 000	250 000	325 000